

**«XALQARO XUSUSIY HUQUQNING YURIDIK TABIATI HAMDA UNING MOHIYATINI  
ANIQLASHGA DOIR NAZARIY MASALALARI»**

*Tayyorlovchi: Toshkent Davlat Yuridik Universiteti 3-Kurs Talabasi*

**Asatullayev Nig'matilla Ziyodulla o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

+99899 819-04-35

[asatullaevnigmatilla8@gmail.com](mailto:asatullaevnigmatilla8@gmail.com)

**Annotatsiya:** Xalqaro xususiy huquq - bu chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik, mehnat va boshqa xususiy huquq munosabatlarni tartibga soluvchi ichki qonunchilik, xalqaro shartnomalar va urf-odatlar normalari majmui.Jamiyatimizda xususiy-huquqiy masalalar yuzasidan ijtimoiy va chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishda xalqaro xususiy huquqning o'rni ahamiyatlidir. Turli davlatlar fuqarolari, biron-bir davlatda istiqomat qiluvchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar, shuningdek yuridik shaxslar hamda davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni xalqaro xususiy huquq normalari yordamida tartibga solinadi. Xalqaro xususiy huquqning yuridik tabiyati va uning mohiyatini aniqlashda turli xil ilmiy nazariyalar va konsepsiylar mavjuddir. Ushbu maqolaning maqsadi – xalqaro xususiy huquqning huquq sohalari orasida tutgan o'rni, uning mohiyati yuzasidan kelib chiqadigan nazariyalar va amaliyotlarni hamda chet el elementi bilan murakkablashgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda uning ahamiyati kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, xalqaro xususiy huquqning ishtirokchilari(subyektlari), ushbu huquq sohasining predmeti, metodi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda manbalarining o'rniaga doir masalalarni batafsil yoritib beradi. Albatta, xalqaro xususiy huquqning rivojlanish tendensiyasi va nazariyalar, davlatlar va xalqaro tashkilotlarning xalqaro xususiy huquq rivojlantirishda amalga oshirayotgan tizimli islohotlarini tahlil qilish masalasi yotadi.

**Kalit so'zlar:** kollizion norma, subyekt, huquq metodi,predmeti, huquqiy nizolar, xalqaro tashkilot, shartnomalar,huquq obyekti, chet el fuqarolari, chet el elementi.

*Статья на тему «Теоретические вопросы определения правовой природы международного частного права и его сущности»*

### **KIRISH**

Xalqaro xususiy huquq – chet el elementi bilan murakkablashgan xalqaro xususiy huquqning subyektlari o'rtasidagi xususiy huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Xalqaro xususiy huquq xususiy huquq tizimida yuridik fanning bir tarmog'i sifatida tan olingan alohida huquq sohasi hisoblanadi. Turli davlatlarning fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar va chet el yuridik shaxslari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Jamiyatda barcha huquq sohalari yagona huquq tizimini tashkil etadi. Ushbu huquq sohalari ularning mazmunini ifodalovchi munosabatlaming

tabiatiga va xususiyatlarga ko'ra ikki toifaga: ommaviy huquq va xususiy huquq tizimlariga ajratiladi. Shunga o 'xhash xalqaro huquq ham xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq sohalariga ajratiladi. Xalqaro xususiy huquqning tartibga solish predmetlari turli xil – oilaviy, meros, mehnat yoki shartnomalar(oldi-sotdi, xizmat ko'rsatish, pudrat) – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shu sababdan davlatlar o'rtasidagi turli xil ommaviy nizolar, kelishuvlar, diplomatik va konsullik munosabatlari jihatidan xalqaro xususiy huquq xalqaro ommaviy huquqdan tubdan farq qiladi. Ushbu huquq sohasini nazariy-amaliy jihatdan o'rganishda turli xil metodlardan foydalilanadi, ushbu metodlar to'g'risida maqolada batafsil ma'lumot taqdim etiladi. Ushbu soha xalqaro hayot sharoitida yuz beradigan xususiy. ya'ni fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessual huquqi bilan tartibga solinadigan, shuningdek oilaviy, mehnat, tadbirkorlik, iqtisodiy protsessual munosabatlarni o 'z ichiga oladi. Xalqaro xususiy huquq sohasida chet el elementi bilan murakkablashgan xususiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda xalqaro moddiy-huquqiy manbalar va kollizion normalar orqali tartibga soladi. Ushbu ikki turdag'i manbalar o'zining huquqiy nazariy va mohiyatiga ko'ra jiddiy farq qiladi. Ushbu barcha mulohazalarni bir joyga jamlagan holda xalqaro xususiy huquqning yuridik tabiatini va mohiyatini aniqlashda o'rganiladigan nazariyalar orqali tanishib chiqishimiz lozim.

### **ASOSIY QISM**

#### **I. Xalqaro xususiy huquq ta'rifi va mohiyati**

Tarixan xalqaro aloqalar va savdoning davlatlar chegarasi bo'ylab kengayishi natijasida ushbu munosabatlarni tartibga solish uchun yangi qonun-qoidalarni ishlab chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi, ayniqsa jismoniy shaxslar o'rtasidagi savdo-aloqalari yoki bitimlar yuzasidan kelib chiqqan nizolarda shunday qo'nunchilikning mavjud emasligi vaziyatni murakkablashtirdi. Ushbu masalani hal etishdan tezda emas,balki asta-sekinlik bilan davlatlar, yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda yangi qonun-qoidalalar tashkil etila boshladi.Keyinchalik ushbu qonun qoidalarning yig'indisi sifatida xalqaro xususiy huquq sohasi vujudga kelib rivojlanan boshlandi.Ushbu huquq sohasini ta'riflashda hozirgi kunga qadar bir-birini rad etuvchi nazariyalar va qarashlar mavjuddir. Aksariyat olimlar ushbu huquq sohasini ta'riflashdan obyektiv va subyektiv tomonlarni inobatga olgan holda ta'riflaydilar. Misol tariqasida xalqaro xususiy huquqning rivojlanishida katta hissa qo'shgan C.Jamhadasning fikricha:

■ Xalqaro xususiy huquq – fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'Imagan shaxslar, yoxud chet el yuridik shaxslari o'rtasidagi chet el elementi bilan murakkablashgan tadbirkorlik, oilaviy, meros, iqtisodiy bitimlar, turli xil xizmat ko'rsatish va fuqarolik-ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi.

Albatta,ushbu ta'rifdan bilishimiz mumkinki, fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar, yoxud chet el yuridik shaxslari o'rtasidagi asosan fuqarolik huquqiy munosabatlari, ya'ni oilaviy, merosga doir, shartnomaviy, turli xil tadbirkorlik sohalari, mulkiy-ashyoviy huquqlari va iqtisodiy bitimlarga doir chet elementi bilan murakkablashgan

munosabatlarga nisbatan ta'riflanadi. Albatta huquq sohasini tartibga solishda ikki turdag'i tizimlarga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi, ya'ni ommaviy huquq va xususiy huquq. Bu ikki soha tartibga solish predmetiga ko'ra, ya'ni qanday ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishiga qarab farqlanadi. Misol tariqasida: I.Rustambekovning fikricha "Xususiy huquq huquqiy tizimdagi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli har qanday holatlarga nisbatan qo'llaniladi. Shuning uchun bu turdag'i qonunlar shaxslar va hukumatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu umumiy huquq(common law)" deb ham ataladi. U mulk huquqi, oila huquqi, shartnoma huquqi, tijorat huquqini o'z ichiga oladi. Endilikda ommaviy huquqiga o'tsak, ommaviy huquq - bu davlat organlari va xususiy shaxslar (hukumat idoralari va mahalliy hokimiyat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar kabi) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar to'plami. Umuman olganda, ommaviy huquq keng jamoatchilikka yoki butun jamiyatga tegishli bo'lgan masalalarni ko'rib chiqadi. Ushbu ommaviy huquqi quyidagi huquq sohalarini o'z ichiga oladi: Ma'muriy huquq, Konstitutsiyaviy huquq, Jinoyat huquqi, Munitsipal huquq va Xalqaro ommaviy-huquqiy qonunlardan tashkil topgan desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yuqorida ko'p marotaba xalqaro xususiy huquqning chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlar deb aytilganda u quyidagi uchta elementlar orqali murakkablashishini ifoda etishini bilib olishimiz lozim:

ELEMENT	TA'RIF
SUBYEKT	Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarning keng tarqalgan ko'rinishlarda bo'lishi va chet el huquqi subyektiarining turli davlat fuqaroligiga mansub bo'lishidir.
OBYEKT	Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarning keng tarqalgan ko'rinishlarda bo'lishi va obyektlarining turli davlatlar hududida joylashgan bo'lishidir
YURIDIK FAKT	Munosabatlarning vujudga kelishi, o 'zgarishi va bekor bo'lishi uchun asos bo'lgan yuridik faktlami muayyan mamlakat huquqi orqali baholash.

Yuridik fanlar doktori Imonov.N.F fikricha "Chet el elementi bilan murakkablashish orqali xususiy huquq doirasi xalqaro huquq doirasiga kengayadi. Ya'ni subyektlarning maqomi masalasi, fuqaro, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'laman shaxslar yoki chet el yuridik shaxsi turli xil davlatlarda joylashishiga qarab ular o'rtasida yuzaga kelgan munosabatlar murakkablashadi" deb qayd etib o'tgandirlar. Shuningdek obyekt masalasida ham uning boshqa chet el davlatida joylashishiga qarab, xalqaro xususiy huquq xarakateriga ega bo'ladi. Bularning barchasi esa yuridik faktda jamlanadi, ya'ni ushbu shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga qarab

munosabatlar murakkablashadi. Ushbu munosabatlarda chet el elementining mavjudligi, oila, meros yoki farzandlikka olish kabi ijtimoiy munosabatlarni ichki huquq tizimidan chiqarib yuboradi va xalqaro xususiy huquq normalarning qo'llanishini talab etadi.

II. Xalqaro xususiy huquq subyekti, predmeti va metodi yuzasidan turli xil olimlarning turli xil nazariyalari

## II. 1 Subyektlar

Xalqaro xususiy huquq subyektlari – chet elementi bilan murakkablashgan oilaviy masalalar, meros, tadbirkorlik, shartnomaviy va tijoriy masalalarni o'z ichiga qamrab oluvchi munosabatlarning ishtirokchilari hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquqning subnектлари yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquqning eng muhim subyektlari jismoniy shaxs va yuridik shaxs tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 16-moddasi (jismoniy shaxs) va 39-moddasi (yuridik shaxs) tushunchalariga ta'rif berilgandir. Unga ko'ra

☒ Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'limgan shaxslar tushuniladi.

☒ O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 16-moddasiga muvofiq jismoniy shaxs deganda fuqaro, fuqaroligi bo'limgan shaxs, chet el fuqarolarini nazarda tutadi. Shuningdek jismoniy shaxsning umumiy huquqiy holatini aniqlashda uning shaxsiy qonuni(*lex personalis*) muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuridik fanlari doktori Xodjayev.B ning ta'riflashicha "Jismoniy shaxsning uning shaxsiy qonuni aniqlash orqali jismoniy shaxsning huquq layoqati va muomala layoqati, ismiga bo'lgan huquqlar, uni yo'qolgan deb yoki bedarak yo'qolgan deb topishda, shuningdek vasiylik va homiylik masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi" deb aytib o'tgan. Shaxsiy qonun esa, ushbu shaxsning fuqaroligi mansub bo'lgan davlat – *lex nationalis* yoki yashash joy qonuni orqali – *lex domicilii* aniqlanishi mumkin.

Yuridik shaxs tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 39-moddasida batafsil ta'rif berilgan bo'lib, unga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, hozirgi zamonda yuridik shaxslarning faoliyati faqatgina bir davlat hududi bilan chegaralanmagan, shu sababdan xalqaro xususiy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga olib keladi. M.M.Boguslavskining qayd etishicha "Xo'jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida yuridik shaxslaming faoliyati bitta davlatning o'zi bilan chegaralanib qolmaydi va bunday yuridik shaxslaming soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, kapitalni eksport qilish, bir davlatda tuzilgan korxonalarni to'liq yoki qisman ravishda boshqa davlat

kompaniyalariga tegishli bo'lib qolishiga olib keladi, chunki yirik monopoliyalaming asosiy faoliyati bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatda amalga oshiriladi". Shu sababdan ham ularning faoliyati boshqa davlatda amalga oshirilishi sababli chet el elementi bilan murakkablashgan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xalqaro ommaviy huquqdan farqli olaroq xalqaro xususiy huquqda ham davlatning o'rni muhim ahamiyatga egadir.I.Rustambekovning fikricha:"Fuqarolik qonunchiligi yuzasidan ijtimoiy munosabatda ishtirok etayotgan davlat, boshqa subyektlar bilan teng ravishda munosabatga kirishadi. Ushbu munosabatlarda davlat nomidan hokimiyat yoki uning vakillari ishtirok etadi. Albatta, davlat ham O'zbekiston Respublikasi Fuqaroligi kodeksi 79-moddasi 3-qismida qayd etilishicha davlat ham fuqarolik-ijtimoiy munosabat bo'yicha teng huquqli hisoblanadi. Ya'ni chet el yuridik shaxslari yoki chet el fuqarolari bilan bo'ladigan xalqaro tusdagi xususiy huquq munosabatlarida o'z majburiyatlari yuzasidan o'z mulki orqali javob berishini ifpda etadi.

II. 2 Predmet, manbalari va uning huquq tizimidagi tutgan o'rni yuzasidan turli xil nazariyalar va ularning mohiyati

Albatta, har qanday soha va fanning predmeti bo'lganidek, xalqaro xususiy huquqning ham predmeti mayjuddir. Avvalo, xalqaro xususiy huquqning predmetini tahlil qilishdan avval, har qanday sohaning yoki fanning predmeti nima ekanligini aniqlab olganimiz maqsadga muvofiqdir. Predmet – har qanday soha va fanda mavjud bo'lib, uning asosiy vazifasi ushbu fan yoki soha o'rganishi kerak bo'lgan va o'z ichiga qamrab olgan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi tushuniladi. Xalqaro xususiy huquqning predmeti sifatida umumiyligida binoan har qanday alohida huquq sohasining predmeti ushbu sohaning mazmunini tashkil qiluvchi huquqiy normalar vositasida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari va ushbu tartibga solishning metodi bilan ifodalanadi . Ushbu umumiyligida xalqaro xususiy huquqning predmetini aniqlashda ham foydalanish lozim.

■ Xalqaro xususiy huquqning predmeti – ushbu huquq sohasining doirasidagi subyektlar, fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lgan shaxslar, chet el yuridik shaxslari, kompaniyalar, tashkilotlari va ko'rxonalar o'rtasida tashqi iqtisodiy, tijoriy, shartnomaviy masalalar, iqtisodiy bitimlar, xizmat ko'rsatish, oilaviy, meros masalalari, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish, vorislik masalalar yuzasidan kelib chiqadigan, o'zgaradigan va bekor bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganishdan iborat hisoblanadi. Misol tariqasida: Jinoyat huquqining predmeti – bu jinoyat va hajmi,mazmuni, subyektiga nisbatan va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra uning turlari, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi kerak bo'lgan jinoiy javobgarlik masalalari va boshqa shu kabi munosabatlarni qamrab oladi.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, xalqaro xususiy huquq predmeti deganda huquqiy-normalar orqali tartibga solinadigan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o'rganishi va o'z ichiga qamrab olishini ifoda etadi. Xalqaro xususiy

huquq predmeti nafaqat ushbu munosabatlarni moddiy-huquqiy normalar yoki kollizion normalar orqali tartibga solishdan tashqari, nizolarni hal etishda amalga oshiriladigan protsessual masalalarni, qaysi davlat huquqini qo'llash va bu bo'yicha vakolatli davlat organlar va ularning vakolatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Z. Shamuxamedovaning ta'kidlashicha "Shu sababdan ham bu shunchaki xususiy huquq emas, balki undagi chet el elementining mavjudligi sababli, oila, tadbirkorlik, meros yoki vasiylik va homiylik kabi huquqiy masalalarni ichki davlat huquq tizimidan chiqarib yuborib, xalqaro xususiy huquqning moddiy-huquqiy normalar va kollizion normalarning qo'llanishiga sabab bo'ladi" deb aytib o'tgandir.

Endilikda xalqaro xususiy huquq manbalari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, huquqning mazmuni muayyan normalardan tashkil topadi, ushbu normalar esa uning shakli orqali amaliyotda qo'llaniladi. Ushbu shakllar esa manbalarda o'z ifodasini topadi va xalqaro xususiy huquqning manbalari esa bir nechta turga bo'linadi. Asosiy manbalar sifatida 1) xalqaro shartnomalar 2) ichki qonun hujjatlari, shuningdek sud va arbitraj qarorlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro shartnomalar, qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi tan olgan xalqaro odat, udumlar va boshqa hujjatlar xalqaro xususiy huquqning manbalari sifatida e'tirof etiladi. Endilikda esa har biriga batafsil ta'rif berib o'tishimiz lozim. Unga ko'ra:

☒ Xalqaro shartnomalar – xalqaro xususiy huquqda xalqaro shartnomalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xalqaro shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama bo'lib, xalqaro shartnoma subyektlarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi, o'zgartiradi yoki bekor qiladi. Xalqaro xususiy huquqda xalqaro shartnomalarda asosan moddiy-huquqiy normalar bixillashtirilgan(unifikatsiyalagan) bo'lib, tomonlarga oilaviy, meros, tadbirkorlik, tijoriy, shartnomaviy va iqtisodiy masalalarni hal etishda muhim ro'l o'ynaydi. Xalqaro shartnomalarga – konvensiyalar, BIT(bilateral investment treatment)lar, ikki tomonla yoki ko'p tomonlama shartnomalar yoki turli xil iqtisodiy bitimlar kiradi. Misol tariqasida: 1986-yildagi "Xalqaro oldi-sotdi shartnomasiga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasi oldi-sotdi munosabatlarda qo'llanilishi kerak bo'lgan huquq masalasini tartibga soladi.

☒ Ichki qonun hujjatlari – yuqorida aytib o'tilganidek, xalqaro shartnomalar bilan bir qatorda yuridik fanlar doktori I.Rustambekovning aytishicha ichki qonun hujjatlari ham xalqaro xususiy xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda manba sifatida qo'llanilishi mumkin. Bunda asosan O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlari to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi keltirilgan hujjatlarni xalqaro xususiy huquq manbasi sifatida aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Xodjey.B ning fikricha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – xalqaro xususiy huquqning asosiy manbasi hisoblanib, asosiy funksiyasi esa fuqarolik-huquqiy, tadbirkorlik, meros, vasiylik-homiylik masalalari, iqtisodiy bitim va tijoriy faoliyatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etuvchi asosiy reguluator hisoblandi. Chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'mlanishi lozim

bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa ichki davlat qonunlari bilan belgilanadi. Fuqarolik kodeksida umumiyligi va maxsus masalalar bo'yicha ham xalqaro xususiy huquq normalari joy oladi. Shuningdek oilviy munosabatlarga nisbatan Oila kodeksi, mehnat munosabatlari nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksini ham xalqaro xususiy huquq manbasi sifatida aytsak bo'ladi. Chet el tajribasida esa tadbirkorlik munosabatlari nisbatan esa Amerika Qo'shma Shtatlarining Tadbirkorlik kodeksi xalqaro xususiy huquq manbasi sifatida ichki davlat qonunchilik hujjati hisoblanadi.

Albatta, xalqaro xususiy huquqni endilikda boshqa huquq sohalari orasida tutgan o'rni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, uning o'rni va mohiyati yuzasidan ham turli xil qarashlar bordir. Misol tariqasida: Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solinishiga nisbatan, normalarning qo'llanilishi mohiyati va tizimiga nisbatan huquq tizimi ikki muhim turga bo'linadi: ommaviy va xususiy huquq tizimidir. Bu ikki huquq sohasi qo'llanilish sohasi, hajmi, mazmuni va ahamiyatiga nisbatan bir-biridan tubdan farq qiladi. M.M.Boguslavskining qayd etishicha xususiy huquq tizimiga kirgan huquq sohalari (fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi, xalqaro xususiy huquq va bir tarafning ikkinchi tarafga huquqiy buysunishiga asoslanmagan munosabatlami tartibga soluvchi boshqa huquq sohalari) vositasida normalari jamiyat a'zolari, davlat va nodavlat tashkilotlarining xususiy manfaadari, xususiy mulk huquqi subyekti arming (jismoniy va yuridik shaxslarning) erk-irodasiga va tashabbuskorligiga asoslangan munosabatlar tartibga solinadi . Xalqaro xususiy huquqda ham bunday munosabatlar tenglikka asoslangan bo'lib, "yoyiq holatdagi munosabatlar"(ruschada "горизонтальные отношения" ) ham deb ataladi. Z. Shamuxamedovaning fikricha xalqaro xususiy huquqning huquq tizimida tutgan o'rni va ommaviy huquqdan farqlovchi faktorlardan biri – bu xalqaro xususiy huquqning xalqaro ommaviy huquqdan farqi shundan iboratki, xususiy huquqiy munosabatlar bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolar xalqaro ommaviy huquq qoidalari o'xshab diplomatik yo'l bilan emas, balki fuqarolik da'vo qo'zg'atish yo'li bilan sud yoki arbitraj organlarida ko'rildi deb qayd etgandir. Turli xil huquq sohalari bilan o'zaro integratsiyalashgani bilan ham muhim ahamiyatga egadir, ya'ni fuqarolik huquqi bilan o'zaro aloqadorligi boshqa huquq sohalarga nisbatan yaqinroqdir. Har ikki sohada ham shaxsiy mulkiy yoki nomulkiy masalalarni qamrab olishi, shartnoma va uning turlariga nisbatan tadbiq etiladigan qonun-qoidalari, turli xil hisob-kitob, iqtisodiy,tadbirkorlik va tijoriy xarakterga ega munosabatlar va albatta oila,meros,vasiylik-homiylik kabi munosabatlarni o'zi ichiga qamrab olgani bilan o'zaro aloqadordir.

### XULOSA

Yuqoridagilarning barchasini inobatga olib yakuniy xulosa beradigan bo'lsak, ushbu maqolaning asosiy maqsadi - bu xalqaro xususiy huquqning yuridik tabiatini, uning mohiyati va uni o'rganishdagi nazariylarni turli xil uning qismlari, ya'ni uning asosiy tushunchasi, huquq sohalari orasidan tutgan o'rni va ro'li, subyektlari, predmeti va uni o'rganishda qo'llaniladigan metodlarni kabi muhim faktorlarni inobatga olgan holda ma'lumot berildi. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha turli xil O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib boruvchi

huquqshunoslar va chet ellik huquq mutaxassislarining xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi asosiy fikr va mulohazalari taqdim etildi. Albatta, ushbu fikr va mulohazalarni asoslash maqsadida ichki qonunchilik hujjatlari, xalqaro shartnomalar va huquqshunos mutaxassislarning qo'llanma manbalaridan foydalanish ijobiy foyda berdi. Hozirgi global tarzda rivojlanib borayotgan zamonda xalqaro xususiy huquqning ahamiyati tobora ortib bormoqdadir, ayniqsa bu chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarning vujudga kelishi sababli deb ham aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 21.12.1995 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021 yildagi O'RQ-682-son "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi
3. 1986-yil qabul qilingan "Xalqaro oldi-sotdi shartnomasiga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risida"gi Gaaga Konvensiyasi.
4. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. - 354 bet.
5. И,Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Междунар. отношения. 1994. - С 118. 83
6. [https://brill.com/display/book/edcoll/9789004480391/B9789004480391\\_s016.xml](https://brill.com/display/book/edcoll/9789004480391/B9789004480391_s016.xml) -1.A.Ibrahim13. Private international law
7. <https://elibrary.namdu.uz/67%20%D0%A5%D1%83%D0%BA%D1%83%D0%BA%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B8%D0%BA%20%D1%84%D0%BD%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Xalqaro%20xususiy%20huquq.%20Darslik..pdf> - Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T.: TDYU, 2019. - 354 bet.